

O'QUVCHILARDA XXI ASR KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Nagmetullaev A

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Pedagogik mahorat markazi Aniq va tabiiy fanlar
metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi*

XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish – bu o'quvchilarga zamonaviy bilimlar, texnologiyalar va ijtimoiy talablar asosida bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, kritikal fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion yondashuvlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan jarayondir.

XXI asr ko'nikmalari global iqtisodiyot va texnologik taraqqiyot sharoitida, shuningdek, yangi pedagogik yondashuvlar asosida shakllanadi.

Tabiiy fanlar ta'limida bunday ko'nikmalarni shakllantirishda asosiy e'tibor ilmiy metodologiyalar, texnologik vositalar va interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishga qaratiladi.

XXI asr ko'nikmalari sifatida quyidagi asosiy ko'nikmalar belgilangan:

Moslashuvchanlik ko'nikmalari

Kritik fikrlash va muammolarni hal qilish

Kommunikativlik

Raqamli va media savodxonlik

Tanqidiy fikrlash

Kreativlik fikrlash

Hamkorlikda ishlash

Muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish

Global va ijtimoiy mas'uliyat

XXI asrda har qanday sohada, ya'ni fan, kasb, jamoatchilik va shaxsiy hayotdagi faoliyatda inson uchun zarur bo'lgan universal bilim, qobiliyat, ko'nikma va shaxsiy fazilatlaridir.

XXI asr talablariga javob beruvchi ko'nikmalarni rivojlantirishda BLUM taksonomiyasi muhim rol o'ynaydi

Blum taksonomiyasiga ko'ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi. Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham ifodalanadi,

jumladan:

1. Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

2. Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish,

yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish.

3. Qo'llash darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, no'anaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'l namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisobkitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

4. Tahlil darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

5. Baholash darajasidagi tafakkurda o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash

6. Yaratish. Yangicha g'oyalar yaratish, yangi mahsulotlar ishlab chiqish

Kritik fikrlash va muammolarni hal qilish XXI asrda o'quvchilarga muammolarni aniqlash va ular uchun yechimlar ishlab chiqishda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

Kommunikativlik

Kommunikativlik – bu odamlar o'rtasida o'zaro ma'lumot, g'oya va bilimlar almashinuvini o'z ichiga olgan muhim kasbiy va hayotiy ko'nikma. Kommunikativlik muloqot qila olish, o'z fikrini boshqalarga yetkaza olish, suxbatdoshini tinglay olish, muzokaralar olib borish qobiliyatidir.

Kreativlik fikrlash

Kreativlik shaxsning o'ziga xos innovatsion g'oyalar yaratish, yanglik kiritish, ishga ijodkorlik bilan yondashish, yangi yo'llarni izlash, yangi usullarni qo'llash va muammoning yangicha yechimlari yuzasidan qaror qabul qilish kompetensiyasi. Kreativ insonlar standart fikrlash chegarasidan chiqa oladilar, hodisa va ob'ektlar o'rtasidagi kutilmagan bog'liqliklarni payqay oladilar, mavjud fikrlardan yangi kontent yarata oladilar.

Hamkorlikda ishlash

Hamkorlikda ishlash (kollaboratsiya)– bu umumiy maqsadga erishish yo'lidagi hamkorlik. Kollaboratsiyaning maqsadi murakkab muammolarni hal etish va muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun bilim, tajriba va resurslarni birlashtirishdan iborat.

Hamkorlikda ishlash muammoga turli nuqtai nazardan qarash imkonini beradi, bu esa albatta yangi g'oyalar va innovatsion yechimlarga olib keladi. Hamkorlikda ishlashning muammolarga individual yondashuvdan afzalligi mehnatni samarali

taqsimlash, ko'plab manbalardan olingan ma'lumotlardan foydalanish, yuqori darajadagi ijodkorlik va yechimlar sifatidan iborat.

Amaliy mashg'ulot: Harakatlar rejasi jadvali asosida topshiriq beriladi

Foydagi fe'llar	Mashq va topshiriqlardan misollar	Baholash ✓ + -
YARATISH Yangi ma'lumot qo'shish Bir yoki bir nechtasini birlashtirish (aralashtirish) Nuqtai nazarni o'zgartirish Yangi mahsulot yaratish Transformatsiya (O'zgartirish)		
BAHO BERISH Baholash Xulosa yasash Tanlash Munozara qilish Qaror qilish Saralash Tekshirish		
SINTEZ QILISH Shakllantirish Integratsiya qilish Tuzatish kiritish Namuna qilish Qayta tuzish Osonlashtirish Vizualashtirish		
TAHLIL QILISH Kategoriyalash Dekonstruksiya qilish Qismlarga bo'lish Farqlash Ko'zdan kechirish (o'rganish) Ajratib ko'rsatish Ma'no olish Sanab o'tish Tartiblash Ustuvorlik berish		
QO'LLASH Bog'lash Namoyish qilish Rivojlantirish Tajriba o'tkazish Tasvirlash (bezash)		

Ifodalash Hal qilish (yechim topish)		
TUSHUNISH So'rash Tasniflash Taqqoslash Baho berish Tushuntirish Umumlashtirish Solishtirish Taxmin qilish Refrazalash Hisobot berish Umumlashtirish		
ESLASH Tanlash Aniqlik kiritish Aniqlash Diagrammani belgilash Sanab o'tish Yodga olish Takrorlash Ko'rsatish Aytish		

KO'R – FIKRLA – HAYRATLAN _BOG'LA MASHQI asosida

Ko'r	Fikrla	Hayratlan	Bog'la Buni men o'qitadigan fan mavzulariga qanday bog'lash mumkin? Bu 21 asr ko'nikmalaridagi 4S larga qanday bog'liq? Bu men tashkil qiladigan darslardagi mashq va topshiriq hamda o'qitish amaliyotlarga qay tarzda bog'liq?
			➤ _____ ➤ _____ ➤ _____

O'zini o'zi baholash

Mavzuni qay darajada o'zlashtirganingiz haqida fikr yuriting. Bu sizga bilimingizdagi bo'shliqlarni aniqlashga hamda yanada samarali ta'lim olishingizga yordam beradi.

Men...	Ko'proq o'rganishim kerak	Deyarli o'zlashtirdim	Ishonchim komil

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Schools of the Future Defining New Models of Education for the Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum 91-93 route de la Capite CH-1223 Cologny/Geneva Switzerland
2. CHANGE OR DIE. The Three Keys to Change at Work and in Life. Alan Deutschman
3. Singapore "Facts, Geography, History, & Points of Interest" SimpleWebGuide.com
4. Outliers The Story of succes Malcolm Gladwell. <https://www.edsurge.com/news>